

Angor tumanida 1,2 mlrd so'mga ta'mirlangan oilaviy poliklinika foydalanishga topshirildi



Angor tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli 2-sonli oilaviy poliklinikasi “Tashabbusli byudjet” loyihasining 2022 yil 2-mavsumida loyiha qiymati 1,2 mlrd so'm mukammal ta'mirlash taklifi bilan g'olib bo'lib, rekonstruktsiya ishlari olib borildi. Hududdagi 2 ta mahallaning 7,5 mingdan ortiq aholisiga xizmat ko'rsatuvchi ushbu poliklinikaning ta'mirdan chiqarilgan yangi binosi bugun foydalanishga topshirildi.

Tadbirda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov, mahalla nuroniylari, tibbiyot xodimlari ishtirok etishdi. Yangilangan binoda faoliyat boshlagan oilaviy poliklinikada yaratilgan sharoitlar, “Elektron poliklinika” tizimini joriy etish bo'yicha olib borilgan ishlar bilan tanishildi.

Tibbiy xizmat sifatini yanada yaxshilash, malakali kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)